

Termiz davlat universitetida 2025-2026 o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalariga nomzodlarni tanlash tadbirlari tashkil etildi

Joriy yilning iyul-avgust oylarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga va “Bakalavriat bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish uchun onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 27-son buyrug‘iga hamda Termiz davlat universiteti rektorining 2025-yil 12-iyuldagi 123-U-sonli buyrug‘iga asosan 25-iyundan yozgi semestr yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalari tanloviga nomzodlardan hujjatlar qabul qilindi va quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyasi tanlovlariga qabul hamda u bilan bog'liq jarayonlarni tashkil etishda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda oliygoh xodimlarining ongiga, kayfiyatiga va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida Termiz davlat universiteti veb-saytining "Korrupsiyaga qarshi kurash" ruknida, rasmiy telegramm kanallarida hamda ommaviy axborot vositalarida jami 15 ta "Korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusida profilaktik targ'ibot-tashviqot tadbirlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalari tanloviga ishtirok etish shartlari, talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati, hujjatlarni qabul qilish talablari va qabul davri xususida e'lonlar tayyorlanib, oliygohning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalari saralash tanlovi jarayonlari uchun talabgorlarning hujjatlar yig'ma jildi tegishli tartibda qabul qilindi.



Qabul davrida barcha fakultetlardan jami 36 nafar nomzod talabalar hujjat topshirishdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 4-iyundagi 02/10-1666-sonli xati ilovasi 2-bo'limi, 2-bandida "barcha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari "a'lo" (ko'pi bilan 25 foizi "yaxshi") bo'lgan, ijodiy ishda qatnashadigan, O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan oxirgi ikki kurs talabalari nomli davlat stipendiyalari uchun bo'ladigan tanlovda ishtirok etishlari mumkin, Prezident stipendiyalari bundan mustasno" — deb belgilab qo'yilgan.

Talabgorlarning hujjatlar yig'ma jildi tekshirib ko'rilganda, 3 nafar talabaning yuqorida ko'rsatilgan me'yoriy hujjat talablariga zid ravishda rasmiylashtirilganligi ma'lum bo'ldi va ular nomli davlat stipendiyalari uchun bo'ladigan tanlovlarda ishtirok etuvchi talabgorlar safidan chetlashtirildi.



Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 226-raqamli qarori bilan tasdiqlangan “Talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari va ularni tayinlash to‘g‘risida”gi Nizom va “Nomli davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ga muvofiq hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 25-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarining tanlov yo‘nalishlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 239-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida universitet rektorining 2025-yil 21-iyuldagi “2025-2026-o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda nomli davlat stipendiyalariga talabgorlar o‘rtasida sinov imtihonlarini o‘tkazish to‘g‘risida” gi 223-PO‘-son buyrug‘i ishlab chiqildi va unga asosan 2025-2026-o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga talabgor nomzodlar o‘rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis)dan suhbat jarayoni hamda O‘zbekiston tarixi va axborot texnologiyalari fanidan test sinovlari 23-25-iyul kunlari universitetning Axborot texnologiyalari fakulteti 106-auditoriyasida o‘tkazildi. Imtihonlar to‘liq videotasvirga olindi va to‘g‘ridan to‘g‘ri Yutub kanali orqali efirga uzatildi.

Imtihonlar jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga universitet bosqichini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan komissiya a‘zolari tomonidan korrupsion va manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga yo‘l qo‘yishayotganligi va odob — axloq qoidalarini buzilishiga olib keladigan xarakatlarni sodir etishayotganligi xususida ma’lumotlar olinmadi.



**2025/2026-o‘quv yilida tyexnikumlarni muvaffaqiyatli
tamomlagan bitiruvchilarni Termiz davlat universiteti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida
o‘qishga qabul qilish jarayonlari tashkil etildi**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 17-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2022-yil 13-yanvardagi 13-sonli hamda Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 19-yanvardagi 13-U-sonli va 2025-yil 4-avgustdagi “2025/2026-o‘quv yilida texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni universitet bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha “Suhbat komissiyalari” va “Apelyasiya komissiyasi” tarkiblarini tasdiqlash to‘g‘risida” 139-U-sonli buyruqlari ijrosini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.



2025/2026-o‘quv yilida texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni universitet bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish hamda u bilan bog‘liq jarayonlarni tashkil etishda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda “Suhbat komissiyalari” va “Apellyatsiya komissiyalari” a’zolarining ongiga, kayfiyatiga va xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida Termiz davlat universiteti veb-saytining “Korrupsiyaga qarshi kurash” ruknida, rasmiy telegramm kanallarida hamda ommaviy axborot vositalarida jami 8 ta “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida profilaktik targ‘ibot-tashviqot tadbirlari amalga oshirildi.

Tyexnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbat sanasi, vaqti, o‘tkaziladigan joyi, ishtirok etish shartlari va suhbat jarayoni xususida e’lonlar tayyorlanib, oliygohning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirildi hamda universitet bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tadbirlari 12-avgust kuni Axborot texnologiyalari fakulteti auditoriyalarida o‘tkazilishi belgilab olindi.



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali 95 nafar bitiruvchilar onlayn ro'yxatdan o'tgan, ular "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim yo'nalishiga 6 nafar, "Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishiga 15 nafar, "Dasturiy injiniring" ta'lim yo'nalishiga 4 nafar, "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ta'lim yo'nalishiga 7 nafar, "Kompyuter injiniringi" ta'lim yo'nalishiga 9 nafar, "Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishiga 18 nafar, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" ta'lim yo'nalishiga 2 nafar, "Sport faoliyati: basketbol" ta'lim yo'nalishiga 1 nafar, "Sport faoliyati: futbol" ta'lim yo'nalishiga 2 nafar, "Sport faoliyati: voleybol" ta'lim yo'nalishiga 5 nafar, "Sport faoliyati: yengil atletika" ta'lim yo'nalishiga 1 nafar, "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishiga 2 nafar, "Yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishiga 23 nafar.

Joriy yilning 12-avgust kuni suhbat asosida o'qishga qabul qilish tadbirlari amalga oshirildi va unda 95 nafar bitiruvchidan 64 nafari qatnashdi, qolgan 31 nafari xar xil sabablarga ko'ra suhbatda ishtirok etishmadi. Suhbat natijalariga ko'ra 64 nafar tyexnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar Termiz davlat universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilindi.



Suhbat jarayoni to'liq videotasvirga olindi va to'g'ridan to'g'ri Yutub kanali orqali efirga uzatildi. Shu bilan birga, bitiruvchilarning ota-onalari suhbat jarayonlarini to'g'ridan to'g'ri kuzatishlari uchun ularga manitor bilan jixozlangan auditoriyada sharoitlar yaratib berildi.

2025/2026-o'quv yilida texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish jarayonlarida "Suhbat komissiyalari" va "Apellyatsiya komissiyalari" a'zolari tomonidan korrupsion va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yishayotganligi va odob — axloq qoidalarini buzilishiga olib keladigan xarakatlarni sodir etishayotganligi xususida ma'lumotlar olinmadi.



**Termiz davlat universiteti professor-o‘qituvchilari
va xodimlari orasida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” va “Korrupsiya “Jamiyat tanasidagi saraton””
mavzularida davra suhbatlari tadbirlari tashkil etildi**

Joriy yilning 19- va 20- avgust kunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi yig‘ilishida berilgan topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida universitet professor-o‘qituvchilari va xodimlari orasida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”, “Korrupsiya “Jamiyat tanasidagi saraton”” mavzularida davra suhbatlari tadbirlari tashkil etildi.



Tadbirlar jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etilishi oldini olish va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-sonli Qonunlarining, “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4761-son Prezident Qarorining, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Prezident Farmonining, “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–147-son Prezident Qarorining, Termiz davlat universiteti Kengashining 2023-yil 26-avgustdagi 1-son yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Termiz davlat universitetining ichki tartibi qoidalari” va “Odob-axloq kodeksi” hamda boshqa korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar mazmun — mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.

Shuningdek, joriy yilning boshida Termiz shahar prokuraturasiga taqdim etilgan materiallar asosida talabalarning o'qishini ko'chirish bilan bog'liq bo'lgan korrupsion holatlarga aloqador bo'lgan universitetning sobiq xodimiga nisbatan 2025-yil 13-mart kuni Surxondaryo viloyati IIB Termiz shahar boshqarmasi tergov bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi "v" bandi, 228-moddasi 1-qismi bilan 224011/2025-249-SP-sonli jinoyat ishi qo'zg'atilganligi, may oyi oxirida ushbu jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov xarakatlari tugatilib, Termiz davlat universitetining Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi muhandisi lavozimida 2025-yil yanvar oyigacha ishlagan Jo'rayev Shavkat Shuhrat o'g'li O'zbekiston Respublikasi JKning 228-moddasi 1-qismi, 228-moddasi 3-qismi, 168-moddasi 3-qismi "v" bandi va 228-moddasi 2-qismi "a" bandida ko'rsatilgan jinoyatlar majmuini qasddan sodir etganlikda ayblanganligi va unga nisbatan ayblov xulosasi rasmiylashtirilganligi hamda jinoyat ishi, ayblov xulosasini tasdiqlash va tegishli sudlovga yuborish uchun Termiz shahar prokuraturasiga yuborilganligi xususida ishtirokchilarga ma'lumot berishdi.



Joriy yilning 29-iyul kuni jinoyat ishlari bo'yicha Termiz shahar sudida Jo'rayev Sh.Sh.ga nisbatan qo'zg'atilgan 1-1901-2504/187-son jinoyat ishi ko'rib chiqilganligini va sud hukmiga asosan u O'zbekiston Respublikasi JK-ning 168-moddasi 3-qismi "v" bandi, 228-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan aybli deb topilib, unga O'zbekiston Respublikasi JK-ning 59-moddasi tartibida tayinlangan jazolarni qisman qo'shish yo'li bilan uzil-kesil o'tash uchun ish haqining yigirma foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2 yil 6 oyga ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganligi ta'kidlab o'tildi va ishtirokchilar jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligi haqida ogohlantirdi.

Shuningdek ma'ruzachilar, 2024-2025-o'quv yilida professor-o'qituvchilar, magistratura va bakalavriat bosqichlarini bitiruvchilar, kunduzgi va sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalari hamda ularning ota-onalari o'rtasida "Universitetda korrupsion va manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudmi? va Siz ularga duch kelganmisiz?" hamda "Iste'molchilarning ta'lim xizmatlari sifatidan qanoatlanganligi" mavzulari bo'yicha anonim holatda (onlayn tarzda) o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari tahlil qilinganda, respondentlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va manfaatlar to'qnashuvi holatlari o'qishga qabul jarayonlarida, joriy, oraliq va yakuniy imtihonlarni hamda bitiruv malakaviy ishlarni qabul qilishda, talabalarni yotoqxonalarga joylashtirishda, talabalarni o'qishini ko'chirish va qayta tiklashda, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimlarga tayinlashda hamda ilmiy unvonlar olishda, doktorlik dissertatsiya ishlarini himoya qilishda mavjudligi aytilganligini ta'kidlab, davra suhbatlari ishtirokchilarini ogohlantirishdi hamda ularga "Termiz davlat universitetining ichki tartibi qoidalarini" va "Odob-axloq kodeksi"da belgilangan majburiyatlar va taqiqlar bilan yana bir bor tanishib chiqishlarini aytib o'tishdi.

